

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI EKOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHGA QARATILGAN DARS DAN TASHQARI TADBIRLAR TASHKIL ETISH METODIKASI

M.Melikuziyeva-BT kafedراسи dotsenti v.b.
Jamoldinova Nazokatxon Saydullaxon qizi-06/22-guruh talabasi
Fatxitdinova Odina G'ayratovna – 08/24-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishda darsdan tashqari ishlarning o'rni, mazmuni va shakllari yoritilgan. Shuningdek, darsdan tashqari tadbirlar orqali o'quvchilarning tabiatga ongli munosabatini shakllantirish, ekologik tarbiya berishning samarali yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ekologik madaniyat, ekologik tarbiya, boshlang'ich sinf, darsdan tashqari ishlar, tabiatni muhofaza qilish, metodik yondashuv.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishda darsdan tashqari ishlar, jumladan tadbirlar tashkil etish samarali ish shakllaridan hisoblanadi. Maqolada tadbirlar o'tkazish uchun senariylar tuzishga oid hamunalar tavsiya sifatida berilishi maqolaning asosiy tadqiqot maqsadidir.

Tadbir nomi: "Tabiat – bizning do'stimiz"

Maqsad:

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatga mehr-muhabbat, e'tiborli va mas'uliyatli munosabatni shakllantirish, ekologik madaniyatni rivojlantirish.

Vahti: 30–40 daqiqa

Ishtirokchilar: 1–4-sinf o'quvchilari

Joy: Maktabning faollar zali yoki ochiq havo maydoni

Tadbir ssenariysi

Boshlovchilar: 2 nafar o'quvchi (qiz va o'g'il bola)

(Tabiatiy liboslarda – qiz "Bahar" obrazida, o'g'il bola "Yil fasli" yoki "Tabiat posboni" obrazida)

1. Kirish

Boshlovchi 1: Assalomu alaykum, aziz ustozlar, mehmonlar va sinfdoshlar!

Bugungi tadbirimizni ona tabiatimiz, beg'ubor go'zalliklarimizga bag'ishlaymiz.

Boshlovchi 2: Tabiat – bizga ona, mehribon. Biz undan hayot, nafas, yorug'lik, go'zallik olamiz.

Shunday ekan, uni asrash ham – bizning burchimiz.

2. She'rlar to'plami (3–4 o'quvchi chiqadi)

1-o'quvchi:

Tabiatni asraylik, do'stlarim, birga,

Yashil daraxt, gullar bezak har yoqqa.

Toza havo, musaffo suv, moviy osmon –

Yashash uchun kerak bizga har bir zamon.

2-o‘quvchi:

Chiqindini tashlamang siz har joyga,
Daraxt kesmang, qushni urmang bolta.

Aksincha, eking bir nihol,

Ko‘paytiring yashil umid, orzu va amal.

3. Sahna ko‘rinishi: “Tabiat va Inson” (mini-drama)

Rollar: Tabiat (qiz bola), Inson (o‘g‘il bola), Daraxt, Qush, O‘simlik, Chiqind
Mazmuni (qisqacha):

Inson o‘rmonga kiradi va daraxtni kesmoqchi bo‘ladi. Qushlar ucha boshlaydi, o‘simliklar so‘nadi. Tabiat g‘azablanadi. So‘ng Inson xatosini tushunadi, daraxt ekib, chiqindini yig‘ib, tabiatdan kechirim so‘raydi. Tabiat uni kechiradi va hayot yana yashnab ketadi.

(Soddalashtirilgan sahna, boshlang‘ich o‘quvchilarga mos)

4. Viktorina: “Tabiatni bilasizmi?”

Boshlovchi savollar beradi, o‘quvchilar javob beradi:

1. Daraxtlar nima uchun kerak?

2. Qaysi hayvonlar uyquga yotadi qishda?

3. Qaysi faslda daraxtlar barg to‘kadi?

4. Qushlarga g‘amxo‘rlik qilish qanday bo‘ladi?

5. Chiqindilarni qayerga tashlash kerak?

(Javob bergan o‘quvchilarga kichik rag‘bat – tabiat rasmlari, ekonishonchalar)

5. Qo‘shiq: “Yashil dunyo” (bolalar tomonidan ijro etiladi)

(Agar mavjud bo‘lsa, “Ona tabiat”, “Yashil makon” singari bolalar ekologik qo‘shiqlari ijro etilishi mumkin.)

6. Yakuniy so‘z

Boshlovchi 1:

Bugun biz birgalikda tabiatmiz.

Xulosa shuki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish uzluksiz va tizimli yondashuvni talab etadi. Tarbiyaviy tadbirlar shaklida o‘tkaziladigan darsdan tashqari ishlar esa bu jarayonda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ziyayev, A. N. "PRIMARY EDUCATION AND AESTHETIC SENSE TRAINING." *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES* ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876 16.06 (2022): 62-64.

2. Ziyayev, A. N. "PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE USE OF EDUCATIONAL VALUES IN THE SPIRITUAL DEVELOPMENT OF STUDENTS." *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES* ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876 16.06 (2022): 86-88.

3. Зияев, Адхам Нисолмухамматович. "ПРАВИЛА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ." *Conferencea* (2023): 143-148.